

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDAGI MASHG'ULOTLAR ORQALI DEVIANT XULQLI BOLALARNI ANIQLASH VA ULARNI TARBIYALASHGA YO'NALTIRISH

Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich

Samarqand davlat universiteti, tadqiqotchi.

e-mail: abdurashidusmonov881@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0007-3922-2558>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida pedagog tinglovchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlar orqali deviant xulqqa moyil bolalarni erta aniqlash va ularni to'g'ri tarbiyalashga yo'naltirish masalalari yoritilgan. Deviant xulqning asosiy belgilari, uning kelib chiqishiga ta'sir qiluvchi oilaviy, ijtimoiy, pedagogik va psixologik omillar tahlil qilingan. Shuningdek, malaka oshirish mashg'ulotlarida pedagoglarning kuzatish, suhbat, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, pedagogik-psixologik tashxis qo'yish va individual yondashuvni qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Maqolada deviant xulqli bolalarni jazolash yoki kamsitish emas, balki ularning muammolarini tushunish, ijobiy fazilatlarini qo'llab-quvvatlash va sog'lom ijtimoiy muhitga moslashtirish muhimligi asoslangan. Pedagog, psixolog va ota-onalar hamkorligiga tayangan holda profilaktik va tarbiyaviy ishlarni tizimli tashkil etish bo'yicha amaliy yondashuvlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, pedagog tinglovchi, deviant xulq, bola tarbiyasi, erta aniqlash, pedagogik kuzatuv, psixologik yondashuv, profilaktika, individual yondashuv, oila va maktab hamkorligi.

ВЫЯВЛЕНИЕ ДЕТЕЙ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ И ОРИЕНТАЦИЯ НА ИХ ВОСПИТАНИЕ ПОСРЕДСТВОМ ЗАНЯТИЙ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ

Усмонов Абдурашид Норбутаевич

Самаркандский государственный университет, исследователь.

Аннотация.

В статье рассматриваются вопросы раннего выявления детей, склонных к девиантному поведению, и организации правильной воспитательной работы с ними посредством занятий, проводимых с педагогами-слушателями в процессе повышения квалификации. Анализируются основные признаки девиантного поведения, а также семейные, социальные, педагогические и психологические факторы, влияющие на его формирование. Особое внимание уделяется развитию у педагогов навыков наблюдения, проведения беседы, анализа проблемных ситуаций, педагогико-психологической диагностики и применения индивидуального подхода. В статье обосновывается, что работа с детьми с девиантным поведением должна быть направлена не на наказание или осуждение, а на понимание причин их поступков, поддержку положительных качеств и адаптацию к здоровой социальной среде. Предлагаются практические подходы к системной организации профилактической и воспитательной работы на основе сотрудничества педагога, психолога и родителей.

Ключевые слова: повышение квалификации, педагог-слушатель, девиантное поведение, воспитание ребёнка, раннее выявление, педагогическое наблюдение, психологический подход, профилактика, индивидуальный подход, сотрудничество семьи и школы.

IDENTIFYING CHILDREN WITH DEVIANT BEHAVIOR AND GUIDING THEIR EDUCATION THROUGH PROFESSIONAL DEVELOPMENT TRAINING

Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich

Samarkand State University, Researcher.

Abstract.

This article discusses the early identification of children who are prone to deviant behavior and the organization of appropriate educational support through training sessions conducted with teachers during professional development courses. The main signs of deviant behavior and the family, social, pedagogical and psychological factors that influence its formation are analyzed. Particular attention is paid to developing teachers'

skills in observation, individual conversation, analysis of problematic situations, pedagogical and psychological assessment and the application of an individual approach. The article emphasizes that children with deviant behavior should not be punished, humiliated or labelled. Instead, teachers should understand the causes of their behavior, support their positive qualities and help them adapt to a healthy social environment. Practical approaches are proposed for organizing systematic preventive and educational work through effective cooperation among teachers, psychologists and parents.

Keywords: professional development, teacher trainee, deviant behavior, child education, early identification, pedagogical observation, psychological approach, prevention, individual approach, family-school cooperation.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri nafaqat o'quvchilarga sifatli bilim berish, balki ularni har tomonlama barkamol shaxs etib tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, ayrim bolalarda uchraydigan deviant xulq-atvorning oldini olish, bunday bolalarni o'z vaqtida aniqlash va ular bilan to'g'ri pedagogik-psixologik ishlarni tashkil etish zamonaviy ta'limning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki deviant xulqning erta aniqlanmasligi keyinchalik o'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi pasayishi, tengdoshlari bilan munosabatlarining yomonlashishi, huquqbuzarlik yoki boshqa salbiy oqibatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bugungi kunda pedagoglardan faqat fanini puxta bilish emas, balki bolalarning psixologik holatini tushunish, ularning xulqidagi o'zgarishlarni erta sezish va zarur pedagogik choralarni ko'ra olish kompetensiyasi ham talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borishda malaka oshirish tizimining o'rni beqiyosdir. Malaka oshirish kurslarida tashkil etiladigan mashg'ulotlar pedagoglarga zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlarni o'rganish, amaliy vaziyatlarni tahlil qilish hamda deviant xulqli bolalar bilan ishlash bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni egallash imkonini beradi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda pedagoglar o'quvchining salbiy xatti-harakatlarini faqat intizom buzilishi sifatida baholaydilar. Aslida esa darsga qiziqmaslik, tajovuzkorlik, muloqotdan qochish, yolg'on gapirish, o'zboshimchalik yoki sinfdoshlar bilan tez-tez nizoga kirishish kabi holatlar bolaning ichki ruhiy kechinmalari, oilaviy muammolari yoki ijtimoiy muhit ta'siri bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun bunday belgilarni erta aniqlash va ularga ilmiy asoslangan yondashuvni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish jarayonida interfaol metodlar, pedagogik vaziyatlar tahlili (case study), rolli o'yinlar, kuzatuv topshiriqlari, guruhli muhokamalar va psixologik treninglardan foydalanish pedagoglarning deviant xulqli bolalarni aniqlash hamda ular bilan ishlash bo'yicha amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlar tinglovchilarga nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlar bilan bog'lash, muammoni har tomonlama tahlil qilish va maqbul yechimlarni tanlash imkoniyatini yaratadi. Shu bois malaka oshirish tizimida deviant xulqli bolalarni aniqlash va tarbiyalashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar mazmunini takomillashtirish, pedagoglarning diagnostik, kommunikativ va korreksion kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi malaka oshirish jarayonida tinglovchilar bilan olib boriladigan mashg'ulotlarning deviant xulqli bolalarni erta aniqlash va ularni samarali tarbiyalashdagi imkoniyatlarini tahlil qilish hamda bu boradagi amaliy yondashuvlarni yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Deviant xulq belgilarini erta aniqlash va bunday bolalar bilan to'g'ri tarbiyaviy ish olib borish pedagogdan maxsus bilim hamda amaliy ko'nikmalarni talab qiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi bolaning xatti-harakatiga shoshilinch baho bermasligi, avvalo uning yosh xususiyatlari, oilaviy muhiti, sinfdagi munosabatlari va xulqning takrorlanish sabablarini o'rganishi kerak. Shu bilan birga, malaka oshirish mashg'ulotlari faqat nazariy ma'ruzalardan iborat bo'lmasdan, pedagogni real vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatishi zarur.

A.E. Lichko "O'smirlarda psixopatiyalar va xarakter aksentuatsiyalari" nomli monografiyasida o'smirlik davridagi xarakter xususiyatlari, tengdoshlar guruhiga qo'shilish, kattalar nazoratidan chiqishga intilish, uydan ketish, qoidabuzarlik va boshqa xulqiy holatlarni tahlil qilgan. Olimning muhim fikrlaridan biri shundaki, xarakter aksentuatsiyasi kasallik yoki psixiatrik tashxis emas, balki xarakterning me'yor doirasidagi kuchli ifodalangan ko'rinishidir. Demak, o'quvchining tez jahli chiqishi, o'ta faolligi, tortinchoqligi yoki kattalar talabiga qarshilik ko'rsatishi uning darhol "deviant bola" deb baholanishiga asos bo'la olmaydi. Lichko xulqdagi muammoni baholashda uning faqat bir vaziyatda emas, turli sharoitlarda namoyon bo'lishi, uzoq vaqt davom etishi va bolaning ijtimoiy moslashuviga qanchalik ta'sir etishini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Uning monografiyasida noto'g'ri tarbiya ko'rinishlari, jumladan, bolaning nazoratsiz qolishi, haddan tashqari nazorat, ortiqcha erkalatish, hissiy rad etish va oiladagi shafqatsiz munosabatlarning xulq shakllanishiga ta'siri ham yoritilgan. Mazkur manbaning maqolamiz uchun ahamiyati shundaki, malaka oshirish mashg'ulotlarida tinglovchilarga bolaning yoshiga xos vaqtinchalik xulqiy reaksiyalarini barqaror muammoli xatti-harakatlardan ajratish o'rgatilishi lozim. Biroq Lichkoning asari klinik yo'nalishda yozilgan. Shu sababli pedagog uning tasniflaridan o'quvchiga tashxis qo'yish yoki tamg'a yopishtirish uchun emas, balki xulqni ehtiyotkorlik bilan kuzatish va zarur vaziyatda bolani psixolog yoki boshqa mutaxassisga yo'naltirish uchun foydalanishi maqsadga muvofiq.

I.M. Patseka "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini maktab ichki malaka oshirish tizimida o'quvchilar deviant xulqining erta profilaktikasiga tayyorlash" mavzusidagi dissertatsiya avtoreferatida pedagoglarning deviant xulqni erta aniqlashga tayyorligi masalasini bevosita o'rgangan. Tadqiqotchi o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi tayyorgarligi ko'pincha tizimli emasligi, malaka oshirish dasturlarida esa deviant xulqning belgilari, sabablari va profilaktikasiga oid amaliy mavzular

yetarli darajada yoritilmasligini qayd etadi. Patseka pedagoglarni tayyorlash jarayonini amaliyotga yo'naltirishni taklif qiladi. Uning modelida deviant xulqning mohiyati va ko'rinishlarini o'rganish, xatti-harakatlarning obyektiv va subyektiv sabablarini tahlil qilish, pedagogik kuzatuv o'tkazish, muammoli bola bilan muloqot qilish hamda profilaktik tadbirlarni rejalashtirish muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, pedagogning tayyorgarligi faqat bilim bilan emas, uning amaliy faoliyati, kasbiy munosabati va bola bilan ishonchli muloqot o'rnatish olish qobiliyati orqali baholanishi kerakligi asoslangan. Tadqiqotda o'qituvchi, ota-onalar, psixolog, ijtimoiy pedagog va boshqa mutaxassislarining hamkorligiga alohida e'tibor beriladi. Bu fikr maqolamiz mavzusiga to'liq mos keladi. Chunki malaka oshirish mashg'ulotida tinglovchi faqat deviant xulq belgilarini bilib qolmasdan, aniqlangan holat yuzasidan kim bilan va qanday tartibda hamkorlik qilishni ham o'rganishi kerak. Patsekaning yondashuvidan kelib chiqib, mashg'ulotlarda ma'ruza bilan cheklanmasdan, pedagogik vaziyatlar tahlili, rolli o'yinlar, kuzatuv varaqalari bilan ishlash, individual tarbiyaviy reja tuzish va guruhli muhokamalarni tashkil etish zarur. Shu bilan birga, tadqiqot asosan boshlang'ich sinf o'qituvchilariga qaratilgan. Shuning uchun uning modeli yuqori sinf o'quvchilari bilan ishlaydigan pedagoglar uchun o'smirlik davrining psixologik xususiyatlari bilan boyitilishi lozim.

Geertje Leflot va hammualliflarining Scopus bazasida indekslangan maqolasida o'qituvchining sinfni boshqarish usullari bolalardagi buzuvchi, o'ta faol va qarshilik ko'rsatuvchi xatti-harakatlarning rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi o'rganilgan. Tadqiqotda 570 nafar boshlang'ich sinf o'quvchisi ikkinchi sinfdan uchinchi sinfgacha kuzatilgan. Natijalarga ko'ra, o'qituvchilar tomonidan salbiy tanbeh va keskin e'tirozlarning kamayishi o'quvchilarning dars vazifasiga ko'proq jalb qilinishiga hamda ruxsatsiz gapirish kabi holatlarning kamayishiga yordam bergan. Bu natija pedagogning so'zi va munosabati tarbiyaviy ta'sir vositasi ekanini ko'rsatadi. Ba'zan o'qituvchi intizomni tiklash uchun o'quvchini ko'p tanbeh berish, boshqalar oldida qo'yish yoki ovozi bilan talab qilish kerak deb hisoblaydi. Leflot tadqiqoti esa faqat salbiy munosabatga tayangan boshqaruv usuli kutilgan natijani bermasligi mumkinligini ko'rsatadi. Buning o'rniga o'quvchiga aniq talabni tushuntirish, ijobiy xulqni o'z vaqtida e'tirof etish, sinf qoidalarini bir xil qo'llash va bolani dars faoliyatiga jalb qilish samaraliroqdir. Shu sababli malaka oshirish mashg'ulotlarida tinglovchilarga faqat deviant xulqli bolani "topish" emas, balki o'z pedagogik munosabatini ham tahlil qilish imkoniyati berilishi zarur. Masalan, videovaziyatlarni tahlil qilish orqali pedagog qaysi jumla bilan bolani tinchlantirishi, qaysi munosabat esa undagi qarshilikni kuchaytirishini amaliy ravishda ko'rish mumkin. Mazkur tadqiqot barcha o'quvchilarga qaratilgan umumiy profilaktik dastur asosida olib borilgan. Demak, uning natijalari klinik tashxis qo'yishdan ko'ra, maktabdagi xulqiy muammolarning oldini olish uchun ko'proq ahamiyatga ega.

Nicholas A. Gage, Nicolette Grasley-Boy va Ashley MacSuga-Gage tomonidan Scopusda indekslangan *Psychology in the Schools* jurnalida chop etilgan maqolada pedagoglarning xulqni boshqarish malakasini oshirishning amaliy usuli sinovdan o'tkazilgan. Tadqiqotda to'rt nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi ishtirok etgan. Ularga qisqa individual mashg'ulot o'tkazilib, keyinchalik faoliyati yuzasidan elektron shaklda ko'rgazmali qayta aloqa berilgan. Natijada pedagoglarning o'quvchi xulqini aniq ko'rsatgan holda maqtash va rag'batlantirish holatlari ko'paygan. Tadqiqotning muhim tomoni shundaki, pedagog xulqida ijobiy o'zgarish kuzatilgan bo'lsa-da, o'quvchilarning umumiy xatti-harakatida katta va bir xil natija qayd etilmagan. Mualliflar bu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish va maktabdagi murabbiylik hamda kuzatuv tizimidan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar.

Muhokama va natijalar

Malaka oshirish mashg'ulotlarida deviant xulqqa moyil bolalarni aniqlash va ular bilan ishlash masalasi faqat nazariy ma'lumot berish bilan cheklanmasligi kerak. Pedagog deviant xulqning turlarini bilishi muhim, ammo real vaziyatda bolaning xatti-harakatini kuzatish, u bilan to'g'ri suhbatlashish, muammoning sabablarini tahlil qilish va individual yordam rejasini tuza olmasa, olingan nazariy bilim kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli malaka oshirish jarayonida amaliy mashqlar, vaziyatli topshiriqlar, rolli o'yinlar, videokuzatuvlar va guruhli muhokamalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Mazkur bo'limdagi natijalar tajriba-sinovning raqamli ko'rsatkichlari emas, balki mashg'ulotlar mazmuni va aniq pedagogik vaziyatlar tahliliga asoslangan sifat natijalari sifatida yoritiladi.

Deviant xulqni aniqlashda pedagogik kuzatish eng muhim vositalardan biridir. Biroq amaliyotda ayrim pedagoglar bolaning bir marta sodir etgan salbiy xatti-harakatiga qarab umumiy xulosa chiqarib yuboradilar. Masalan, o'quvchi bir kuni darsga kechiksa, u "intizomsiz", sinfdoshi bilan tortishib qolsa, "tajovuzkor", topshiriqni bajarmasa, "dangasa" deb baholanishi mumkin. Bunday yondashuv bolaning holatini to'g'ri tushunishga xalaqit beradi.

Malaka oshirish mashg'ulotida tinglovchilarga maxsus kuzatish varaqasi bilan ishlash topshirig'ini berish mumkin. Unda quyidagi jihatlar qayd etiladi: xatti-harakat qachon sodir bo'ldi, undan oldin qanday vaziyat yuz berdi, bola aynan nima qildi, bu holat qancha davom etdi, atrofdagilar qanday munosabat bildirdi va voqeadan keyin nima o'zgardi. Bunda pedagog o'z taxminini emas, ko'rgan holatini yozishi kerak.

Masalan, yettinchi sinf o'quvchisi Jasur bir hafta davomida birinchi darsga kechikib kelmoqda, dars paytida asabiylashmoqda va o'qituvchining talabiga keskin javob bermoqda. Dastlab ayrim tinglovchilar uni intizomsiz bola sifatida baholashi mumkin. Ammo kuzatish natijasida uning faqat ertalabki darslarda asabiy bo'lishi, keyingi mashg'ulotlarda esa faol qatnashishi aniqlanadi. Keyingi suhbat davomida Jasur ertalab ukasini bog'chaga olib borishi va shu sababli darsga kechikayotgani ma'lum bo'ladi.

Ushbu misol pedagogga har qanday salbiy xatti-harakatni deviant xulq sifatida baholash mumkin emasligini ko'rsatadi. Xulqning takrorlanishi, davomiyligi, sodir bo'ladigan vaziyat va uning sabablari birgalikda o'rganilishi kerak. Mashg'ulot natijasida tinglovchilar "bola tajovuzkor" kabi umumiy baholardan voz kechib, "o'quvchi tanbeh berilganda ovozi bilan talab qilindi va topshiriqni bajarishdan bosh tortdi" kabi aniq kuzatuv ma'lumotlarini qayd etishga o'rganadilar.

Kuzatish ko'nikmasini rivojlantirish uchun videolavhalardan ham foydalanish mumkin. Bir xil dars jarayoni tinglovchilarga namoyish etilib, ular o'quvchining xatti-harakatlarini alohida qayd etadilar. Keyin yozuvlar solishtiriladi. Muhokamada ba'zi tinglovchilar fakti, ayrimlari esa shaxsiy bahosini yozgani ko'rinadi. Bu mashq pedagogning xolis

kuzatish malakasini oshiradi.

Deviant xulqqa moyil bolalar bilan suhbat olib borishda pedagogning ohangi, savol berish usuli va tinglash qobiliyati katta ahamiyatga ega. Ayblovchi, qo'rqituvchi yoki kamsituvchi savollar bolani ochiq gapirishdan uzoqlashtiradi. Masalan, "Nega yana janjal qilding?", "Senga necha marta aytish kerak?" yoki "Sening odating shu" kabi jumlar bolaning o'zini himoya qilishiga, voqeani yashirishiga yoki yolg'on gapirishiga sabab bo'lishi mumkin.

Malaka oshirish mashg'ulotida rolli o'yin tashkil etilib, bir tinglovchi pedagog, ikkinchisi o'quvchi, uchinchisi esa kuzatuvchi rolini bajarishi mumkin. Pedagog rolidagi tinglovchiga ayblovchi, ochiq savollar berish vazifasi topshiriladi. Masalan:

- Bugungi vaziyat qanday boshlanganini aytib bera olasanmi?
- O'sha paytda o'zingni qanday his qilding?
- Sinf doshning qaysi harakati seni ranjitdi?
- Bu holat yana takrorlanmasligi uchun senga qanday yordam kerak?
- Vaziyatni boshqa yo'l bilan hal qilish mumkinmidi?

Aniq misol sifatida sakkizinchi sinf o'quvchisi Dilshodning guruhli topshiriqlarda qatnashmasligi, sinf doshlariga qo'pol gapirishi va darsdan chiqib ketishi bilan bog'liq vaziyatni olish mumkin. Dastlab bu holat o'jarlik yoki intizomsizlik sifatida ko'rinadi. Biroq individual suhbatda ayrim sinf doshlari uning nutqidagi kamchilikni masxara qilishi, shu sababli u guruh oldida gapirishdan qo'rqishi aniqlanadi. Demak, Dilshodning qo'pol javoblari aslida o'zini himoya qilish shakli bo'lishi mumkin.

Bu vaziyatni tahlil qilgan tinglovchilar bolaning ko'rinib turgan xatti-harakati bilan uning ichki kechinmasi har doim ham bir xil bo'lmasligini tushunadilar. Natijada pedagoglarda faol tinglash, bolaning fikrini bo'lmaslik, his-tuyg'ularini inkor etmaslik va aniqlashtiruvchi savollar berish ko'nikmalari shakllanadi.

Suhbat davomida maxfiylik masalasiga ham e'tibor berish zarur. Pedagog bolaga uning aytgan barcha gaplari mutlaqo sir qolishini va'da qilmasligi kerak. Agar bolaning hayoti, sog'lig'i yoki xavfsizligiga tahdid mavjud bo'lsa, bu haqda tegishli mutaxassisga xabar berilishi lozim. Biroq o'quvchining shaxsiy muammosini sinf yoki boshqa o'qituvchilar oldida muhokama qilish mumkin emas.

Deviant xulq bilan bog'liq holatlarda pedagog tezkor qaror qabul qilishi kerak bo'ladi. Lekin shoshilinch chiqarilgan qaror ba'zan muammoni yanada kuchaytiradi. Shu sababli malaka oshirish mashg'ulotlarida keys, ya'ni aniq pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish usuli samarali hisoblanadi.

Masalan, quyidagi vaziyat tinglovchilarga taqdim etiladi: oltinchi sinfda bir o'quvchining telefoni yo'qoladi. Sinf doshlar telefonni avval ham mayda buyumlarni ruxsatsiz olgan Kamol olganini aytadilar. Sinf rahbari dalil bo'lmasa-da, Kamolni barcha oldida ayblaydi. Keyinchalik telefon sport zalida qolib ketgani aniqlanadi. Ammo Kamol o'qituvchidan ranjib, bir necha kun darsga kelmaydi.

Vaziyatni tahlil qilishda tinglovchilarga quyidagi savollar beriladi:

1. Ushbu holatda aniq faktlar nimalardan iborat?
2. Qaysi fikrlar faqat taxmin yoki boshqalarning gapiga asoslangan?
3. Pedagogning qaysi harakati xato bo'lgan?
4. Kamolning darsga kelmay qo'yishiga nima sabab bo'lishi mumkin?
5. Voqeadan keyin o'qituvchi qanday yo'l tutishi kerak?
6. O'quvchining sinfdagi obro'sini tiklash uchun nima qilish mumkin?

Muhokama natijasida tinglovchilar dalilsiz ayblash, o'quvchini jamoa oldida kamsitish va uning avvalgi xatti-harakatiga asoslanib hukm chiqarish noto'g'ri ekanini anglaydilar. To'g'ri yondashuvda pedagog avval vaziyatni aniqlashtirishi, barcha tomonlarni alohida tinglashi, Kamoldan uzr so'rashi va sinfdagi munosabatlarni tiklash choralarini ko'rishi kerak.

Muammoli vaziyatlarni tahlil qilishda "vaziyatdan oldingi holat — xatti-harakat — oqibat" ketma-ketligidan foydalanish foydali. Masalan, o'quvchi darsda daftarini ulotirdi. Faqat shu harakatni baholash yetarli emas. Undan oldin nima bo'lganini aniqlash kerak. Balki o'qituvchi uni sinf oldida koyigan, sinf doshi esa ustidan kulgan bo'lishi mumkin. Xatti-harakatdan keyin bola darsdan chiqarilgan va natijada o'zi yoqtirmagan topshiriqni bajarmagan. Bu holatda darsdan chiqarish bolaning salbiy xulqini bilmasdan mustahkamlab qo'yishi mumkin. Bunday mashqlar pedagoglarda vaziyatning faqat tashqi ko'rinishini emas, uning sababi, davom etish mexanizmi va oqibatlarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada tinglovchilar jazo choralarini tanlashdan oldin muammoning kelib chiqish sharoitini o'rganishga odatlanadilar.

Pedagogik-psixologik tashxis bolaning xulqidagi muammoni birgina test yoki suhbat orqali aniqlash degani emas. Buning uchun kuzatish, suhbat, ota-ona va fan o'qituvchilarining fikri, o'zlashtirish ko'rsatkichlari, davomat, tengdoshlar bilan munosabati va bolaning qiziqishlari birgalikda o'rganilishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, pedagog klinik yoki tibbiy tashxis qo'ymaydi. U xavf belgilarini aniqlaydi, pedagogik ma'lumotlarni to'playdi va zarur holatda maktab psixologi yoki boshqa mutaxassisga murojaat qiladi. Malaka oshirish mashg'ulotlarida ushbu kasbiy chegarani tushuntirish muhimdir.

Masalan, to'qqizinchi sinf o'quvchisi Madina ilgari yaxshi o'qigan, ammo oxirgi ikki oy ichida darslarda kam gapiradigan, topshiriqlarni bajarmaydigan va sinf doshlari bilan muloqotdan qochadigan bo'lib qolgan. Ayrim pedagoglar bu holatni befarqlik yoki mas'uliyatsizlik deb baholashi mumkin. Tinglovchilarga Madina haqidagi turli ma'lumotlar taqdim etiladi: oilasi yaqinda boshqa hududdan ko'chib kelgan, u avvalgi do'stlaridan ajralgan, yangi sinfda hali yaqin dugonasi yo'q va baholari ko'chib kelganidan keyin pasaygan.

Mazkur ma'lumotlarni tahlil qilish orqali tinglovchilar Madinaning xatti-harakati barqaror deviant xulq emas, balki

yangi muhitga moslashishdagi qiyinchilik bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini aniqlaydilar. Bunday vaziyatda unga jazo berish emas, sinfga moslashishiga yordam berish, qo'llab-quvvatlovchi tengdosh bilan birga topshiriq berish, individual suhbat o'tkazish va psixolog maslahatini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Mashg'ulotlarda tinglovchilarga bolaning "xavf omillari" va "himoya omillari" xaritasini tuzish topshirig'ini ham berish mumkin. Xavf omillariga oiladagi doimiy nizo, nazoratsizlik, tengdoshlarning salbiy ta'siri, dars qoldirish, tajovuzkorlik va o'zlashtirishning keskin pasayishi kirishi mumkin. Himoya omillari esa bolaning sportga qiziqishi, ishonchli o'qituvchisi mavjudligi, buvisi bilan yaqin munosabati yoki ma'lum bir fandagi muvaffaqiyatidan iborat bo'lishi mumkin. Ushbu yondashuv pedagogga faqat kamchiliklarni emas, bolaga yordam berishi mumkin bo'lgan kuchli tomonlarni ham aniqlash imkonini beradi. Natijada tinglovchilar bir manbaga yoki bitta xatti-harakatga asoslanib xulosa chiqarishdan voz kechib, ma'lumotlarni bir necha usul orqali tekshirishga o'rganadilar.

Deviant xulqqa moyil bolalarga bir xil tarbiyaviy chorani qo'llash samarali emas. Chunki bir-biriga o'xshash xatti-harakatlar turli sabablardan kelib chiqishi mumkin. Masalan, ikki o'quvchi ham dars qoldiradi. Ulardan biri tengdoshlarining ta'sirida ko'chada vaqt o'tkazishi, ikkinchisi esa uyda kasal onasiga qarashi mumkin. Demak, ikkala bola uchun bir xil jazo belgilash muammoni hal qilmaydi.

Malaka oshirish mashg'ulotida tinglovchilarga shartli ravishda Bekzod ismli o'quvchi misoli beriladi. Bekzod tanqid qilinganda tez jahli chiqadi, sinfdoshlarini itaradi va darsdan chiqib ketadi. Shu bilan birga, u sportga qiziqadi, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida faol va kichik yoshdagi o'quvchilarga yordam berishni yoqtiradi.

Tinglovchilar Bekzod uchun individual pedagogik yordam rejasini ishlab chiqadilar. Rejada quyidagi yo'nalishlar belgilanishi mumkin:

- jahl chiqayotganini sezganda foydalanadigan kelishilgan "tanaffus belgisi"ni joriy etish;
- o'quvchini sinf oldida emas, alohida suhbatda ogohlantirish;
- hissiyotlarni boshqarish bo'yicha psixologik mashg'ulot tashkil etish;
- sport tadbirlarida mas'ul vazifa berish;
- ota-ona bilan bir xil va tushunarli talablarni kelishib olish;
- har hafta xulqdagi ijobiy o'zgarishlarni birgalikda muhokama qilish;
- kichik muvaffaqiyatlarini aniq xatti-harakat asosida rag'batlantirish.

Bunda "Yaxshi bola bo'lib yur" kabi umumiy talab o'rniga aniq va kuzatiladigan maqsad belgilanadi. Masalan: "Kelgusi ikki hafta davomida jahl chiqqanda sinfdoshini urish o'rniga o'qituvchi bilan kelishilgan tanaffus usulidan foydalanish". Bunday maqsadni kuzatish va baholash osonroq.

Yana bir misolda Shahnoza ismli o'quvchi darslarni ko'p qoldiradi. Suhbat davomida u kichik singlisiga qarash uchun uyda qolayotgani aniqlanadi. Bu holatda faqat davomat uchun jazolash samarasiz. Individual yondashuv doirasida ota-ona bilan suhbat o'tkazish, oilaviy vaziyatni o'rganish, qoldirilgan mavzularni o'zlashtirish uchun qulay jadval tuzish va zarur ijtimoiy yordamga yo'naltirish lozim.

Mazkur misollar tinglovchilarga individual yondashuv bolaning salbiy harakatiga yon berish emasligini tushuntiradi. Unda talab saqlanadi, biroq talabni bajarishga xalaqit berayotgan sabablar ham hisobga olinadi. Natijada pedagog o'quvchining kuchli tomonlariga tayanib, real va bosqichma-bosqich yordam rejasini tuzishni o'rganadi.

Deviant xulqli bolani tarbiyalash bir pedagogning vazifasi emas. Maktab psixologi, sinf rahbari, fan o'qituvchilari va ota-onaning hamkorligi zarur. Malaka oshirish mashg'ulotlarida ko'p tomonlama suhbatni modellashirish mumkin. Bunda tinglovchilar pedagog, ota-ona, psixolog va o'quvchi rollariga bo'linadilar.

Masalan, o'quvchi dars qoldiradi va maktabda tez-tez janjallashadi. Pedagog ota-onani: "Farzandingizni tarbiyalamayapsiz", deb ayblasa, hamkorlik yuzaga kelmaydi. Buning o'rniga quyidagi shakldagi muloqot samaraliroq bo'ladi:

"Oxirgi ikki hafta davomida farzandingiz uch marta darsga kelmadi va ikki marta sinfdoshlari bilan tortishdi. Biz bu o'zgarishning sababini birgalikda aniqlab, unga yordam berishni istaymiz. Siz uyda qanday o'zgarishlarni sezdingiz?"

Bunday suhbatda muammo aniq faktlar orqali ifodalanadi, ota-ona ayblanmaydi va umumiy yechim izlash taklif etiladi. Mashg'ulot natijasida pedagoglar hamkorlikka yo'naltirilgan muloqot, vazifalarni taqsimlash va umumiy monitoring rejasini tuzish ko'nikmasini egallaydilar.

Mashg'ulotlar natijasida shakllanadigan asosiy o'zgarishlar

Amaliy vaziyatlar, roli o'yinlar va guruhli tahlillar asosida tashkil etilgan malaka oshirish mashg'ulotlari tinglovchilarda bir qator muhim kasbiy o'zgarishlarni shakllantirish imkonini beradi.

Birinchidan, pedagoglar o'quvchiga "tarbiyasiz", "muammoli" yoki "tajovuzkor" degan umumiy tamg'a qo'yish o'rniga, uning aniq xatti-harakatini tasvirlashga o'rganadilar.

Ikkinchidan, tinglovchilar bir martalik holat bilan takroriy va barqaror xulq o'rtasidagi farqni anglaydilar. Bu esa o'quvchini shoshilinch ravishda deviant xulqli deb baholashning oldini oladi.

Uchinchidan, pedagoglarda ayblovi savollar o'rniga ochiq savollar berish, faol tinglash va bolaning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qilish ko'nikmasi rivojlanadi.

To'rtinchidan, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish jarayonida tinglovchilar fakt, taxmin va shaxsiy bahoni bir-biridan ajratishni, xatti-harakatdan oldingi vaziyat va uning oqibatlarini hisobga olishni o'rganadilar.

Beshinchidan, pedagogik-psixologik tashxis jarayonida turli manbalardan ma'lumot to'plash, xavf va himoya omillarini aniqlash hamda pedagogning kasbiy vakolati chegarasini bilish ko'nikmasi shakllanadi.

Oltinchidan, tinglovchilar bolaning muammosiga mos, aniq maqsad va kuzatiladigan mezonlarga ega individual yordam rejasini ishlab chiqishga o'rganadilar.

Umumiy muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, deviant xulqli bolalarni aniqlash jarayonida eng katta xatolardan biri bolaning xatti-harakatini uning shaxsiyati bilan tenglashtirishdir. "Bola yolg'on gapirdi" degan holat bilan "bola yolg'onchi" degan hukm bir xil emas. Birinchi jumlada o'zgartirish mumkin bo'lgan aniq xatti-harakat ifodalansa, ikkinchisida bolaning butun shaxsiyatiga salbiy baho beriladi. Malaka oshirish mashg'ulotlari pedagoglarda aynan mana shu farqni anglashga yordam berishi kerak.

Yana bir muhim jihat shundaki, deviant xulqni aniqlashning o'zi yetarli emas. Aniqlangan muammo yuzasidan o'z vaqtda, ehtiyotkor va muvofiqlashtirilgan yordam ko'rsatilmasa, tashxis bolaga qo'yilgan tamg'aga aylanib qolishi mumkin. Shu sababli kuzatish, suhbat, vaziyatni tahlil qilish, pedagogik-psixologik baholash va individual yondashuv yagona jarayonning o'zaro bog'langan bosqichlari sifatida tashkil etilishi lozim.

Malaka oshirish jarayonida pedagoglarga tayyor javoblarni berishdan ko'ra, real vaziyatni tahlil qilib, bir nechta yechim orasidan eng maqbulini tanlash imkonini yaratish samaraliroqdir. Chunki maktab amaliyotida bir xil vaziyatlar deyarli uchramaydi. Har bir bolaning oilaviy sharoiti, xarakteri, qiziqishi va yordamga ehtiyoji o'ziga xosdir.

Shunday qilib, amaliy yo'naltirilgan malaka oshirish mashg'ulotlari pedagoglarning deviant xulqli bolalarni erta aniqlash, ular bilan ishonchli muloqot o'rnatish va individual tarbiyaviy yordam ko'rsatish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday mashg'ulotlar natijasida pedagog bolaning salbiy xatti-harakatini shunchaki jazolashga emas, uning sababini tushunish, xavf omillarini kamaytirish, ijobiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlash va sog'lom ijtimoiy muhitga qaytarishga yo'naltiriladi.

Xulosa

Malaka oshirish jarayonida tinglovchilar bilan deviant xulqqa moyil bolalarni aniqlash va tarbiyalashga yo'naltirilgan mashg'ulotlarni tashkil etish pedagoglarning kasbiy faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday bolalar bilan ishlash faqat nazariy bilimni emas, balki kuzatish, tinglash, vaziyatni tahlil qilish, to'g'ri xulosa chiqarish va individual yordam ko'rsatish ko'nikmalarini ham talab qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bolaning bir martalik salbiy xatti-harakatiga asoslanib uni deviant xulqli deb baholash to'g'ri emas. Pedagog xulqning qachon, qanday vaziyatda va nima sababdan yuzaga kelganini o'rganishi, takrorlanish darajasi hamda bolaning ta'limi va ijtimoiy munosabatlariga ta'sirini hisobga olishi lozim. Shu jihatdan kuzatuv varaqalari, keyslar, videovaziyatlar va rolli o'yinlardan foydalanish pedagoglarda xolis kuzatish hamda fakti shaxsiy taxmindan ajratish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Bola bilan olib boriladigan individual suhbat ham muammoni aniqlashning muhim vositasidir. Ayblash, qo'rqitish va kamsitish o'quvchining pedagogga bo'lgan ishonchini kamaytiradi. Ochiq savollar berish, faol tinglash, bolaning his-tuyg'ularini tushunishga harakat qilish esa xatti-harakat ortidagi asl sabablarni aniqlashga yordam beradi. Shu sababli malaka oshirish mashg'ulotlarida tinglovchilarga pedagogik muloqotning insonparvar va ishonchga asoslangan usullarini amaliy ravishda o'rgatish zarur. Pedagogik-psixologik tashxis qo'yishda faqat bitta test yoki suhbat natijasiga tayanish yetarli emas. O'quvchining xulqi, davomati, o'zlashtirishi, oilaviy sharoiti, tengdoshlari bilan munosabati va qiziqishlari birgalikda o'rganilishi kerak. Bunda pedagog klinik tashxis qo'ymasligi, balki xavf belgilarini aniqlashi va zarur hollarda bolani maktab psixologi yoki tegishli mutaxassisga yo'naltirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Личко А. Е. *Психопатии и акцентуации характера у подростков*. – 2-е изд., доп. и перераб. – Ленинград: Медицина, 1983. – 256 с.
2. Пацка И. М. *Подготовка учителей начальных классов к работе по ранней профилактике девиантного поведения учащихся в системе внутришкольного повышения квалификации*: автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Москва, 2010. – 23 с.
3. Leflot G., van Lier P. A. C., Onghena P., Colpin H. *The Role of Teacher Behavior Management in the Development of Disruptive Behaviors: An Intervention Study with the Good Behavior Game* // *Journal of Abnormal Child Psychology*. – 2010. – Vol. 38. – No. 6. – P. 869–882.
4. Gage N. A., Grasley-Boy N. M., MacSuga-Gage A. S. *Professional Development to Increase Teacher Behavior-Specific Praise: A Single-Case Design Replication* // *Psychology in the Schools*. – 2018. – Vol. 55. – No. 3. – P. 264–277.
5. Korpershoek H., Harms T., de Boer H., van Kuijk M., Doolaard S. *A Meta-Analysis of the Effects of Classroom Management Strategies and Classroom Management Programs on Students' Academic, Behavioral, Emotional, and Motivational Outcomes* // *Review of Educational Research*. – 2016. – Vol. 86. – No. 3. – P. 643–680.
6. Reinke W. M., Herman K. C., Stormont M. *Classroom-Level Positive Behavior Supports in Schools Implementing SW-PBIS: Identifying Areas for Enhancement* // *Journal of Positive Behavior Interventions*. – 2013. – Vol. 15. – No. 1. – P. 39–50.
7. Bradshaw C. P., Waasdorp T. E., Leaf P. J. *Effects of School-Wide Positive Behavioral Interventions and Supports on Child Behavior Problems* // *Pediatrics*. – 2012. – Vol. 130. – No. 5. – P. e1136–e1145.
8. Reinke W. M., Stormont M., Herman K. C., Puri R., Goel N. *Supporting Children's Mental Health in Schools: Teacher Perceptions of Needs, Roles, and Barriers* // *School Psychology Quarterly*. – 2011. – Vol. 26. – No. 1. – P. 1–13.
9. Hirsch S. E., Randall K., Bradshaw C., Lloyd J. W. *Professional Learning and Development in Classroom Management for Novice Teachers: A Systematic Review* // *Education and Treatment of Children*. – 2021. – Vol. 44. – No. 4. – P. 291–307.
10. Simonsen B., Fairbanks S., Briesch A., Myers D., Sugai G. *Evidence-Based Practices in Classroom Management: Considerations for Research to Practice* // *Education and Treatment of Children*. – 2008. – Vol. 31. – No. 3. – P. 351–380.